

## 1-dars. 1-mavzu. Narsalarning xossalari

### Darsning texnik xaritasi

Dars maqsadlari:	narsalarning turli xil xususiyatlarini (rangi, shakli, o'lchami, materiali, harorati va boshqa) kuzatish va nomlash ko'nikmasini shakllantirish, narsalarning umumiy va farqli xususiyatlarini topish
Tayanch bilimlar:	shakl (doira, kvadrat, uchburchak), rang (qizil, ko'k, sariq, yashil), o'lcham (katta, kichik)
Erishiladigan natijalar:	narsaning xususiyatlarini aytib olish, narsalarni umumiy xususiyatlariga ko'ra tanib olish
Foydalaniladigan metodlar:	suhbat, aqliy hujum, tadqiqot, tahlil va umumlashtirish, assotsiatsiya, fan metodlari, o'zaro tekshiriladigan mustaqil ish
Foydalaniladigan materiallar:	darslik, xususiyatlarini o'rganish uchun turli narsalar yoki ularning rasmlari (kitob, chashka, tugma), to'rt xil shakldagi kartochkalar: to'rtburchak, doira, kvadrat, uchburchak; rangli va oddiy qalamlar, ruchkalar
Darsning yo'l xaritasi:	1 2 3 4 5

### Darsning borishi

#### Tashkiliy qism. Motivatsiya

Darsni darslik va uning asosiy qahramonlari bilan tanishtirishdan boshlash tavsiya etiladi. Ushbu kitob to'liq ma'noda darslik emasligini, dars davomidagi asosiy ishlarni: bo'yash, chizish, muhim narsalarni yozib olish kabi vazifalarni bajarish mumkin bo'lgan ish daftari ekanligini tushuntirib o'tish zarur.

Keyin bolalar bilan maktabda matematika fani nima uchun o'qitilishini, matematika turli kasb egalari: fermer, shifokor, oshpaz, o'qituvchiga qanday yordam berishi mumkinligini muhokama qilishingiz mumkin.

#### Tushunish. Bilimlarni aktallashtirish

Ushbu bosqichda har bir buyum juda ko'p xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatish kerak. Muhokama paytida aqliy hujum usulidan foydalanishingiz mumkin: bolalarga bir nechta narsalarni ko'rsatib, ularning xususiyatlarini so'rang. Bu haqiqiy (darslik, qalam, to'p) yoki rasmda ko'rsatilgan narsa (tugma, rasm, yo'l belgisi) bo'lishi mumkin. Narsalar bilan ishlashda iloji boricha turli xil xususiyatlarni eslab qolish maqsadga muvofiqdir: rang, o'lcham (katta/kichik), qalinligi (qalin/ingichka), shakli (yumaloq/kvadrat/uchburchak), qo'shimcha xususiyatlar (silliq/qo'pol, qattiq/yumshoq, yeyiladigan/yeyilmaydigan, nam/quruq, iliq/sovuq, yengil/og'ir).

Masalan, o'qituvchi har bir o'quvchining partasidagi buyum (kitob, qalam, daftar) xususiyatlarini o'rganishni taklif qilishi mumkin. Ishlash osonroq bo'lishi uchun tadqiqotda barcha o'quvchilarga bir xil narsalarni tanlash tavsiya etiladi. Keyin shunga o'xshash narsaning tasviri o'rganiladi. Ushbu bosqichda ishni tugatib, o'quvchilarga haqiqiy narsa tasvirlanganidan ko'ra ko'proq xususiyatlarga ega ekanligi to'g'risida xulosa chiqarishga yordam berishingiz kerak.

Ushbu tadqiqot oxirida biz narsalarning tasvirlari bilan ishlashda ularning ba'zi xususiyatlarini oldindan bilish qiyinligini tushuntirishimiz mumkin, ularni faqat ushlab ko'rish orqali tanib olish mumkin. Shuning uchun o'rganilayotgan asosiy xususiyatlar rang, shakl, o'lcham bo'ladi.

### Yangi mavzuni tushuntirish


Darsning bu bosqichida o'quvchilar rang, shakl, o'lcham, narsalarning rangi va shaklini aytish, o'lchamiga qarab taqqoslash kabi asosiy xususiyatlarni o'rganadilar

1

**1-topshiriqning maqsadi:** rasmda ko'rsatilgan narsalar va ularning asosiy xususiyatlari: rang, o'lcham, shakl o'rtasidagi bog'liqlikni shakllantirish.



1. Rasmda qanday shakllarni ko'ryapsiz?  
Ranglari qanaqa? Ularning o'lchamlarini taqqoslang.



1-topshiriqni bir necha xil usul bilan bajarish mumkin.

**1-usul.** O'quvchilarning partasida doira, kvadrat va uchburchak shaklidagi kartochkalar bo'lishi kerak. O'qituvchi rasmdagi narsani aytadi, o'quvchilar esa uning shaklini mos kartochka yordamida ko'rsatadilar.

**2-usul.** O'quvchilar o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan narsalarning xususiyatlarini sanab o'tadilar, masalan, bayroq — rangli (ko'k, oq, yashil), katta.

**3-usul.** O'quvchilar rasmdagi ikkita narsani tanlaydilar va ularning umumiy va farqli xususiyatlarini topadilar.

- 2 **2-topshiriqning maqsadi:** yangi shakllar bilan tanishtirish, haqiqiy buyumlar va matematik shakllar o'rtasidagi bog'liqlikni topish qobiliyatini shakllantirish, xotira va nutqni mashq qildirish.



2. Siz quyidagi shakllardan qaysilarini bilasiz? Berilgan shakllardan tashqari yana qanday shakllarni bilasiz?



2-topshiriqda o'quvchilar o'zlariga tanish bo'lgan shakllarni sanab o'tishlari va 1-topshiriq rasmda bir xil shaklga ega narsalarni topishlari kerak (agar mavjud bo'lsa). Masalan, rasmda siz to'rtburchaklar shaklidagi binoni, doira shaklidagi bayroqning asosini ko'rishingiz mumkin. Bolalarga sinf xonasidagi bir xil shaklga ega bo'lgan bir nechta narsalardan misol keltirishni taklif qilishingiz mumkin.

Topshiriq bilan ishlashni yakunlab, o'qituvchi bolalarning e'tiborini ushbu darsning nazariy qismiga qaratadi, narsalarni shakli, rangi va hajmi bo'yicha taqqoslash mumkinligini tushuntiradi.



Shakli, o'lchami va rangi bo'yicha sizga tanish bo'lgan narsalarni taqqoslashni o'rganamiz.



### Olingan bilimlarni mustahkamlash

Darsning bu bosqichida o'quvchilar darsda o'rgangan asosiy tushunchalarini mustahkamlaydilar. Narsalarning rangi, shakli va hajmini aytishadi.

- 3 **3-topshiriqning maqsadi:** Darsda olingan bilimlarni mustahkamlash, turli narsalarning umumiy xususiyatlarini topish ko'nikmasini shakllantirish



3. Har bir tokchada joylashgan narsalar uchun umumiy shakl chizing



Shkafning har bir polkasida bir xil shakldagi narsalar ko'rsatilgan. O'quvchilar bitta polkada joylashgan narsalarni nomlashadi va ularning umumiy shakli nima ekanligini aniqlaydilar. Keyin chap tomondagi bo'sh joyga o'quvchilar ushbu shaklni chizishadi. Birinchi qatorda to'rtburchaklar, ikkinchisida uchburchak, uchinchisida doira shakliga ega narsalar bor.


Assotsiativ fikrlashni rivojlantirish uchun o'qituvchi bolalardan polkalardan biriga joylashtirilishi mumkin bo'lgan yana bir nechta narsalarni aytishlarini so'rashi mumkin.

4

**4-topshiriqning maqsadi:** o'quvchilarni katak, uning joylashishi va markazi bilan tanishtirish.



4. Qatorni davom ettiring.




Katak daftarda ishlash ko'nikmasini shakllantirish uchun 4-topshiriqni darsda bajarish muhim hisoblanadi. Avval o'qituvchi ruchkani qanday qilib to'g'ri ushlashni, yozish paytida qanday o'tirishni ko'rsatadi. Keyin u bolalarni daftar katagi, uning chegaralari va o'rtasi bilan tanishtiradi. Ushbu topshiriqni bajarishda o'quvchilar birinchi qatorda daftar kataklarini ketma-ket chetlarini chizib chiqishadi, ikkinchisida-katakning chetlarini chizib, uning o'rtasini topib belgilashlari kerak bo'ladi.

5

**5-topshiriqning maqsadi:** assotsiativ fikrlashni, geometrik shakl va haqiqiy buyumda umumiy shaklni topish qobiliyatini shakllantirish.



5. Narsaning rasmi va unga mos shaklni chiziq bilan tutashtiring.




5-topshiriqda narsalar va ularga mos shakllarini chiziq bilan tutashtirish kerak. Vazifani bajarayotganda ishning og'zaki va yozma shakllarini foydalanish mumkin: avval narsaning asosiy xususiyatlarini og'zaki aytiladi, so'ngra narsa va mos keladigan shakl chiziq bilan tutashtiriladi.



## I bo'lim. Asosiy tushunchalar

### Refleksiya

O'qituvchi refleksiyaning uch bosqichda amalga oshirishi mumkin. Birinchi bosqich og'zaki, bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilar darsda nimani o'rganganligini aniqlab, og'zaki so'rov o'tkazadi. Ikkinchi bosqichda bolalarga qo'shimcha rivojlantiruvchi bo'limdagi vazifani bajarishni taklif qilishingiz mumkin. Bu erda shakllarni namuna bo'yicha bo'yash kerak: kvadrat yashil rangda, doira ko'k rangda, uchburchak qizil rangda. Uchinchi bosqichda esa o'qituvchi darsni emotsional baholashni taklif qilishi mumkin: menga dars yoqdi yoki yoqmad, aynan nima yoqdi.



## 2-dars. 2-mavzu. O'xshashlik va farq

### Darsning texnik xaritasi

Darsning maqsadi:	«yuqoriroq-pastroq», «kengroq-torroq», «kattaroq-kichikroq», «uzunroq-qisqaroq» so'zlari yordamida narsalarni o'lchamlari bo'yicha taqqoslash ko'nikmasini shakllantirish
Tayanch bilimlar:	hajm, katta-kichik, baland-past, uzun-qisqa, keng-tor
Erishiladigan natijalar:	umumiy belgi yordamida narsalarni taqqoslay olish
Foydalaniladigan metodlar	o'yin metodlari, taqqoslash va tahlil qilish metodi, munozara, o'zaro tekshiriladigan mustaqil ish, fan metodlari
Foydalaniladigan materiallar:	Darslik, turli o'lchamdagi rangli kartochka yoki stikerlar, rangli va oddiy qalamlar, ruchka
Darsning yo'l xaritasi:	1 2 3 4 5 6

### Darsning borishi

#### Jalb qilish. Motivatsiya

Ushbu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarni buyumlarni taqqoslashni o'yin tarzida tanishtiradi. Bolalar kundalik hayotda «kengroq», «torroq», «balandroq», «pastroq», «uzunroq», «qisqaroq» so'zlaridan muntazam foydalanganligi sababli, diqqatni faollashtirish o'yin ko'rinishga ega bo'lishi va ushbu tushunchalarni takrorlashga